

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari
to‘plami

28 aprel 2023-yil

Toshkent sh., O‘zbekiston

Сборник материалов Международной научно-
практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ,
ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ»»**

28 апреля 2023 года

г. Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific and
practical conference

**"TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY,
ACHIEVEMENTS, PROSPECTS"**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

Ташкентская медицинская академия // Сборник материалов Международной научно-практической конференции «НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ, ПЕРСПЕКТИВЫ» Сборник материалов конференции // ООО "TIBVIYOT NASHRIYOTI MATVAA UYI" - 2023 - 112 стр.

| | |
|---------------------------------------|--|
| Главный редактор | Шадманов А.К., ректор Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н. |
| Заместитель главного редактора | Азизова Ф.Л., проректор по науке и инновациям Ташкентской медицинской академии, профессор, д.м.н. |
| Ответственный секретарь | Высогорцева О.Н., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н. |
| Редколлегия: | Собирова Г.Н., профессор кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, д.м.н. Жумаева Г.А., доцент кафедры реабилитологии, народной медицины и физической культуры, к.м.н. |

**“XALQ TABOBATI: TARIXI, YUTUQLAR,
ISTIQBOLLAR”**

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami
28 aprel 2023-yil

Toshkent, O‘zbekiston

Сборник материалов Международной
научно-практической конференции

**«НАРОДНАЯ МЕДИЦИНА: ИСТОРИЯ, ДОСТИЖЕНИЯ,
ПЕРСПЕКТИВЫ»**

28 апреля 2023 года

Ташкент, Узбекистан

Collection of materials of the International scientific
and practical conference

**«TRADITIONAL MEDICINE: HISTORY, ACHIEVEMENTS,
PROSPECTS»**

28 April 2023

Tashkent, Uzbekistan

dli diabetning 2-tipida yog'lar almashinuvini buzilishini oldini olish va davolashda tavsiya etish mumkin.

Olingan natijalar ko'rsatishicha, Galega officinalis l dorivor o'simligi 2-tip qandli diabet kasalligida giperglikemiyaning davolash bilan bir qatorda giperlipidemiya hamda giperxolesterinemiyani korreksiyalash uchun ham tavsiya etish mumkin.

Adabiyotlar:

1. Fadzelly A.B., Asmah R., Fauziah O. Effects of Strobilanthes crispus tea aqueous extracts on glucose and lipid profile in normal and streptozotocin-induced hyperglycemic rats // Plant Foods Hum. Nutr. -2006. Vol. 61. N 1. -P. 7-12.

2. Vengerovskiy A.I. Gipolipidemicheskoye deystviye ekstraktov lekarstvennykh rasteniy pri eksperimentalnom saxarnom diabete // Ximiko-farmatsevticheskiy jurnal, 2019. -T.53. -№3. -S.40-44

3. Dobordjginidze L.M., Gritsianskiy N.A. Rol statinov v korreksii diabeticheskoy dislipidemii // Сахарный диабет. - 2001. - № 2. - S. 33-37.

4. Orexova Ye.M., Shvets V.I., Gracheva N.I., Klyuchikskiy V.A. Biologicheskiye aktivnyye proizvodnyye mioinozitanolipidnoy prirody i perspektivnost ix ispolzovaniya dlya sozdaniya lekarstvennykh preparatov // Ximiko-farmatsevticheskiy jurnal. M. 1996. № 3. -S. 9-20

IBN SINO SHIFOKOR AXLOQI HAQIDA

Atamuratova Feruza Sadullaevna

Falsafa fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasiljtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

Sharqda tabiblar va ularning mehnatini juda qadrlangan. Xalq orasida tabiblarning obro'si baland bo'lgan. Shuning uchun ham xalq qadimdan tabiblarning faoliyatiga baho berib kelgan. Mana ulardan ayrimlari: "Tabib o'z ishida mahorat, kasallar holiga shafqat kerak. Ahli tib tabiati uyg'un va donishmand, so'ziga payrov va mulozim bo'lsin. So'zida yumshoqlik va diljo'ylik, o'zida hayo va xushfe'llik bo'lsin. Bunday tabibning yuzi bemor ko'ngliga sevinchlidir va so'zi kasalga yoqimlidir, dami bemorlarga davo va qadami xastalarga shifodir. Agar kasbida mohir bo'lsa-yu, ammo o'zi badfe'l, beparvo va qo'pol bo'lsa, garchi bemorga bir tarafdanda voqilur. Lekin savodsiz tabib jallod shogirdidir. U tig' va zahar bilan azoblaydi. Bilimli shifokorlar o'z xalqining faxri va baxti".

Ibn Sino tabib axloqi to'g'risidagi fikrlarida axloqiy fazilatlarini ulug'laydi, axloqiy ilatlarni keskin qoralaydi. U tabiblarning kundalik amaliy ishlaridagi kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to'g'rilik, sofdillik kabi xulqiy qoidalarga alohida e'tibor beradi. Abu Ali ibn Sino hayotda ham, asarlarida ham tabiblarni har bir masalaga ilmiy, aqliy, axloqiy yondoshishga, rostgo'y, vijdonli bo'lishga, xullas, insoniylikning eng muhim xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishga chaqiradi. "Haqiqiy tabib, - degan edi u, - o'zining qadr-qimmatini saqlagan holda davolaydi va besharm hatti-harakatlardan o'zini tiyadi. U mana shu fikrga moyil bo'lsagina kishilarni davolashga borsin. O'z vijdonini davolay olmagan kishi boshqalarni davolayman desa, bunday odam eng yomon odamdir".

Buyuk mutafakkir shifokor axloqida adolat mezoniga ham alohida e'tibor bergan: "Adolat, muhim axloqiy xislat bo'lib, u odamning uch istagi - toqat, jasurlik va donolik bilan paydo bo'ladi, ushbu fazilatlariga ega bo'lgan odam, o'zini yaramas ishlardan saqlay oladi" - deydi Ibn Sino.

Tib qonunlari asarida Ibn Sino bemorga alohida yondashishni talab qiladi: "Bilish kerakki, har bir shaxsning o'ziga xos tabiati bor. Bir xil tabiatli insonlar kamdan-kam yoki umuman uchmasligi mumkin. Davolashda so'z katta ahamiyatga ega bo'lib, u nafaqat nutq madaniyatini, balki xushmuomalalikni, bemorni ko'nglini ko'tarish qobiliyatini, beparvo gap bilan uni xafa qilmaslikni ham anglatadi".

Alloma tabibning axloqiy kategoriyalariga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlik, sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. U toqat, saxovat va mo'tadillikni insonning hissiy bilimi-

ga kiritadi; chidamlilik, aqllilikni g'azab quvvatiga; donolik, ehtiyotkorlik, ziyraklik, sadoqat, uyatchanlik, ijrochilik, achinishlik, sofdillik va boshqalarni tafovut quvvatiga kiritadi.

Ibn Sino tabib axloqi haqida shunday deydi: "Tabib qirg'iyga xos ko'zga, qizlarga xos qo'lga, ilonga xos donolikka va shoirga xos yurakka ega bo'lishi kerak".

Albatta, buyuk tabib va mutafakkirning so'zlari bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bugun ham insonparvarlik, rahm-shafqat, bemorning azobini yengillashtirish istagi - zamonaviy tibbiyotning asosi bo'lib qolishi kerak.

O'ZBEKLARDA ANIMALOTERAPIYA: ETNOGRAFIK QAYDLAR TAHLILI

Azizov Ahrorbek A'zamjonovich

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi

Qadimdan jahon xalqlar tomonidan insonlarni davolash maqsadida hayvonlarning turli qismlaridan foydalanib kelingan. O'zbek xalqi an'anaviy dunyoqarashida ham bir qator jonivorlar va ularning qismlari kishilarni davolashda muhim rol o'ynagan.

Turkiylarda qadimdan bo'rining go'shti va yog'idan sil kasalini davolashda foydalanilgan [1].

Zaxarlanganlar uchun echki go'shti foydali ekanligi xususidagi ma'lumotlarni Abu Rayhon Beruniy ham yozib qoldirgan [2].

Eshakemi (urtikariya-krapivnitsa) toshmasi teriga chiqqanda eshakka etagida yem berish shifo beradi deb hisoblangan. Ushbu tadbir aholi orasida yaqin-yaqinlargacha o'tkazib kelingan.

Laqqa baliqning qorin qismidan kesib olib, qorni og'rigan odam qorniga matoga o'rab qo'yilgan [3]. Burgutning o't pufagi esa quturish kasaliga davo sifatida ishlatib kelingan. Mazkur qushning ushbu qismini ajratib olishni faqat tajribali ovchilar amalga oshira olgan, xolos. Shuningdek, yo'lbars qismlaridan bepustlikni davolash maqsadida foydalanib kelingan [4].

Chorvaning suti shifobaxsh xususiyatga ega sanaladi. Masalan, qimiz xalq tabobatida sil kasalligini oldini oladi, deb hisoblangan va ushbu ichimlik odamni yosh saqlashiga ishonadilar.

O'zbek xalqi xotiralarida itning ham davo husuiyati borligiga ishonch mavjud bo'lib, turli kasalliklarni davolashda qadimdan foydalanib kelingan. It kasalliklarni o'ziga tortib oluvchi hususiyat egasi sifatida tasavvur qilingan. Hususan, qorin og'riganda qo'yiladigan sho'r hamir itga berilsa, kasallik unga o'tib ketishiga yoki so'gal itga yalatilisa, tanadan to'kilib ketishiga ishonilgan. Itning davo hususiyati to'g'risidagi qarashlar boshqa dunyo xalqlarida mavjud bo'lgan. Masalan, finlarda it turli kasallik va afsunlarni o'ziga tortib oluvchi qobiliyat esasi deb qaralgan [5].

Turli qushlar va baliqlardan estetik zavq, bola tarbiyasida alohida o'ringa ega yoki psixologik depressiyalarni oldini oluvchi, ayrim kasalliklarni davolashga xizmat qiluvchi jonivorga aylanmoqda. Hozirgi kunda animaloterapiya servis xizmatlari qatorida dunyo davlatlarida asta-sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Masalan, Yaponiyada mushukli qahvaxona faoliyat yuritisa, Sankt-Peterburgda esa bunday muassasa 2011 yilda ochilgan edi. Darhaqiqat, mushuk dunyoning boshqa xalqlari singari vodiylklarning qarashlariga ko'ra, tabiblik xususiyatiga ega bo'lgan va insonning og'rigan joyini payqab, unga suyka-lish orqali og'riqni to'xtatar ekan.

Adabiyotlar

1. Рысбаева Г.К. Верования и обычаи, связанные с тотемом животных // Наука и новые технологии. – 2012. – №7. – С. 267.
2. Francfort H. The snake eating goat and the bezoar: some landmarks in the history of gastrolith thought to be an antidote from protohistoric Middle Asia to Modern Europe /
3. Мустафаев Ш., Эспанс М., Горшенина С., Рапэн К., Бердимуратов А., Гренэ Ф. Культурный трансфер на перекрестках Центральной Азии: до, во время и после великого шелкового пути. – Париж-Самарканд: МИЦАИ, 2013. – 37–38 с// Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и

| СОДЕРЖАНИЕ | |
|---|----|
| <i>A'zamjonov A.A., Abdurasulova M. B., Xasanova M.I., Raximova X. A. GEPATITNI DAVOLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV</i> | 2 |
| <i>Abilov O'rol HAMSHIRA VA MA'NAVIYAT</i> | 2 |
| <i>Ahmedova D.Sh., Toxtamuratova Z.Sh., Rayimberdiyev E.D OLIY O'QUV MUASSASALARIDAGI TALABALARNI SOG'LOM TURMUSH TARZIGA RIOYA QILISHI BO'YICHA SO'ROVNOMA TAHLILLARI</i> | 4 |
| <i>Allayeva M.J., Achilov .D.D. DIABETNING DITIZON MODELIDA UMUMIY LIPIDLAR DARAJASINI O'SIMLIGI EKSTRAKTINING GIPOLIPIDIMIK HAMDA GIPOXOLESTERINEMIK TA'SIR SAMARADORLIGI</i> | 5 |
| <i>Atamuratova F.S.IBN SINO SHIFOKOR AXLOQI HAQIDA</i> | 7 |
| <i>Azizov A.A. O'ZBEKLARDA ANIMALOTERAPIYA: ETNOGRAFIK QAYDLAR TAHLILI</i> | 8 |
| <i>Biykuziyeva A.A., Muxiddinova F.M, Sodikova N.S., Turdialiyeva Sh.U. IBN SINO TA'BLIMOTIDA BADAN TARBIYA TADBIRI – DAVOLOVCHI JISMONIY TARBIYA TO'G'RISIDA</i> | 9 |
| <i>Bo'riyev O., Iskandarov Sh. ABU RAYHON BYERUNIYNING ASARLARIDA ZARDUSHTIYLIK BILAN BOG'LIQ QARASHLAR</i> | 10 |
| <i>Bo'riyev O., Iskandarov Sh. «HUDUD UL-OLAM» VA UNDA QASHQADARYO VOHASI SHAHARLARI TAVSIFI</i> | 12 |
| <i>Ergasheva N.O. BO'G'IM KASALLILARNI DAVOLASHDA APITERAPIYANING O'RNI</i> | 14 |
| <i>Fayzullayeva O.U., Nazirtashova R.M. QANDLI DIABET KASALLIGI VA UNI DAVOLASHDA TOPINAMBUR O'SIMLIGIDAN FOYDALANISH</i> | 15 |
| <i>Ganijonov H. THE ROLE OF BEHAVIOR IN THE EARLY DETECTION OF SCHIZOPHRENIA</i> | 16 |
| <i>Hyangmi Gavart_KOREAN MEDICAL BOOK REPORT IN EUROPE</i> | 17 |
| <i>Jumanazarov X.S. O'ZBEK XALQINING TABOBAT AN'ANALARI TARIXI</i> | 18 |
| <i>Kim Taewoo THE EMERGENCE OF NEW TRADITIONAL ACUPUNCTURE PRACTICES IN KOREAN MEDICINE: A HISTORICAL AND ANTHROPOLOGICAL APPROACH</i> | 20 |
| <i>Mahmaraimov Sh.T., Soatova M.B. XONDROITIN SULFAT VA CENTELLA ASIATICA EXTRACTINI BIRGA QO'LLAGANDA TIZZA BO'G'IMI ARTROZIDA OG'RIQQA QARSHI TA'SIRINI O'RGANISH</i> | 20 |
| <i>Mahmaraimov Sh.T., Chutboev B.R., Choriev M.Yu. CENTELLA ASIATICA EXTRACTINING TIZZA BO'G'IMI ARTROZIDA YALLIG'LANISHGA QARSHI TA'SIRINI O'RGANISH</i> | 21 |
| <i>Maxmudov L.Yu. TIB QONUNLARIDA KASALLIKLAR, ULARNING ASOSIY SABABLARI VA KO'RINISHLARI HAQIDA YORITILISHI</i> | 22 |
| <i>Maxsumov Sh.M., Zayseva O.A. O'ZBEKISTON FARMAKOLOGLARINING FITOTERAPIYA RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI</i> | 24 |
| <i>Nazarbaiuly B. BASICS OF TRADITIONAL MEDICINE</i> | 25 |
| <i>Niyozova N.S. QADIMGI SHARQ TIBBIYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</i> | 26 |
| <i>O'tayev G'G' . YUQUMLI KASALLIKLARNING RIVOJLANISHIDA IBN SINO AMALIY MEROSINING O'RNI VA AHAMIYATI</i> | 27 |
| <i>Orazgalieva M.T. Aimagambetov M.Zh., Akbayeva M.M., Orazgalieva M.T., Shortombayev A.A., Yermukhambetov B.Y. ALGORITHM OF PROACTIVE THERAPY OF HEMOSTASIS DISORDERS IN PATIENTS WITH MECHANICAL JAUNDICE IN THE INTRA - AND POSTOPERATIVE PERIOD</i> | 29 |
| <i>Qosimjanova N. A., Raximova X.A. ABU ALI IBN SINO TA'LIMOTIDA FARMASEVTIKA</i> | 30 |